

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida
UO‘K: 330.3 (545.1)

ARABBOYEV AZMIDDIN XUSAN O‘G‘LI

**DAVLAT INVESTITSIYA SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING
USTUVOR YO‘NALISHLARI**

5A230603 - Investitsiyalarni boshqarish (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) mutaxassisligida
Magistr akademik darajasini olish uchun tayyorlangan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: PhD., dots. U.Sh.Duskobilov


Toshkent – 2019

Magistrlik dissertatsiyasida davlat investitsiya siyosatining iqtisodiy mohiyati ochib berilgan. Davlat investitsiya siyosatining joriy holati tahlil qilingan. Bu boradagi muammolar aniqlangan. Davlat investitsiya siyosatini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

The master's dissertation defines economic essence of public investment policy. Current state of public investment policy is analyzed. Problems have been identified. Recommendations and advise for improving public investment policy are developed.


Magistrlik dissertatsiyasi «Bank ishi» kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.
19 -sonli bayonnoma «29» noyabr 2019 yil.

Ilmiy rahbar: PhD., dots. U.Sh.Duskobilov


imzo

_____ sana


Magistr: A.X.Arabboyev


imzo

_____ sana

«Himoyaga tavsiya etiladi»

«Bank ishi» kafedrasi mudifi,
PhD. U.Sh.Duskobilov


«20» noyabr 2019 y.

Magistrlik dissertatsiyasi himoyasi 2019 yil «03» noyabr soat 14⁰⁰ da Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo'lib o'tadi.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. DAVLAT INVESTITSIYA SIYOSATINIING NAZARIY, TASHKILIY VA HUQUQIY ASOSLARI	8
1.1. Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati, turlari va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati	8
1.2. Davlat investitsiya siyosatining mohiyati, maqsadi va ustivor yo'nalishlari	19
1.3. Investitsiya siyosatini tartibga solishning me'yoriy-huquqiy asoslari	24
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	28
II BOB. O'ZBEKISTONDA DAVLAT INVESTITSIYA SIYOSATINING AMALDAGI HOLATI	30
2.2. Milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish amaliyoti.....	30
2.2. Investisiya siyosatida asosiy kapitalga investitsiyalar tahlili	38
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	43
III BOB. O'ZBEKISTONDA DAVLAT INVESTITSIYA SIYOSATINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	45
3.1. O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilishdagi mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari.....	45
3.2. Davlat investitsiya dasturlarini shakllantirishda uzoq muddatga mo'ljallangan konsepsiyani ishlab chiqish zarurati	51
Uchinchi bob bo'yicha xulosa	63
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	65
FOYDALINILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	69

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Bugungi kunda har bir mamlakat iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog'liqligini deyarli har bir mutaxassis va xo'jalik yurituvchi sub'ekt yaxshi anglaydi. Shunga ko'ra, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xususan, xorijiy investitsiyalarni kengroq jalb etish ularning mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali ijrosini ta'minlashning muhim asosiga aylanganligi bilan bog'liqligini tushunib olish qiyin emas. Mamlakatni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalarining jumladan, xorijiy investitsiyalarning ahamiyati kattadir.

Investitsiya siyosati – bu iqtisodiyotning ustivor tarmoqlarini rivojlantirish, qo'llab – quvvatlash, markazlashgan investitsiyalash jarayonidan nomarkazlashgan investitsiya jarayoniga o'tish, ustivor investitsion loyihalarni qo'llab quvvatlashga qaratilgan mexanizm, uslublar yig'indisi hisoblanadi. Davlat investitsiya siyosatini amalga oshirishda ko'proq ustivorlik kichik biznes sub'ektlari, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tuzishga qaratilgan. Davlat investitsiya siyosati mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, muammolarni tezkorlik bilan hal qilish va shu asosda investitsiya ishtirokchilarining erkin harakat qila olishlari uchun qulay iqtisodiy, investitsion muhit yaratishga qaratilgan.

Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining barcha sohalarida o'zgarishlar, tarkibiy islohatlar olib borilmoqda. Bunday islohatlarning olib borilishi bevosita mamlakatdagi investitsion jarayon, Davlatning investitsion siyosati, uning ustivor yo'nalishlari va mamlakatdagi korxonalar investitsion faolligiga bog'liq. Mustaqillikning qisqa davrida investitsion faoliyatni oshirish, uni kuchaytirish borasida qator amaliy chora – tadbirlar o'tkazildi, investitsion faoliyatni tartibga solib turuvchi qator qonun va qonun osti hujjatlari chiqarildi va hayotga tadbqiqilinmoqda.

Iqtisodiyotimizning jahon xo'jalik va iqtisodiy-moliyaviy tizimiga integratsiyalashuv jarayoni tobora chuqurlashib borayotganini inobatga oladigan